ÖQUVÇILARDA TANQIDIY FIKRLAŞ KÖNIKMASINI ŞAKLLANTIRIŞ MASALASI

Yusupova Tursunay Axmedovna,
Toşkent davlat özbek tili va adabiyoti universitet dotsenti
DOI: 10.67620/yoshlarvailm.0340018

Annotatsiya. Uşbu maqolada ona tili ta'limida öquvçilarning tanqidiy fikrlaş könikmasini rivojlantiriş haqidagi masalalar yoritilgan. Ona tili ta'limida öquvçida tanqidiy fikrlaşni örganişga doir yondaşuvlar va ularning tahlili berilgan, metodlar yoritilgan, topşiriq va maşqlardan namunalar keltirilgan. Dars jarayonida qöllaniladigan maşq va topşiriqlarning namunalari tadqiqi ham öz ifodasini topgan.
Kalit sözlar: tanqidiy fikrlaş, debat, muammoli ta'lim, maşqlardan namunalar.
Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития навыков критического мышления учащихся в процессе обучения родному языку. Представлены подходы к формированию критического мышления у учащихся в обучении родному языку и их анализ, раскрыты используемые методы, приведены примеры заданий и упражнений. Также исследуются образцы упражнений и заданий, применяемых непосредственно в учебном процессе.
Ключевые слова: критическое мышление, дебаты, проблемное обучение, примеры упражнений.
Annotation. This article addresses the development of students' critical thinking skills within the context of native language education. It an analysis of approaches to fostering critical thinking, outlines relevant methods, and provides of tasks and exercises. The study also examines the specific exercises and assignments utilized during the instructional process.
Keywords: critical thinking, debate, problem-based learning, examples of exercises.

Kiriş

Öquvçilarning tanqidiy fikrlaş könikmalarini takomillaştiriş masalasi bugungi kun ta'lim tizimidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi öquvçidan nafaqat tayyor bilimlarni egallaşni, balki mustaqil fikrlaş, tahlil qiliş, dalillarga asoslangan xulosa çiqariş va yangiça qarorlar qabul qila olişni talab etadi. Bu esa tanqidiy fikrlaş könikmasini şakllantiriş bilan bevosita boğliqdir. Bugungi kunda dunyo miqyosida ta'limning asosiy maqsadi – axborotga töla muhitda yöqolib qolmaydigan, ma'lumotni tahlil qilib, töğri xulosa çiqaradigan, ongli qarorlar qabul qila oladigan şaxsni tarbiyalaşdir. Şu örinda tanqidiy fikrlaşga izoh berib ötamiz. Pedagogika ensiklopediyasida u quyidagiça ta'riflangan: "TANQIDIY FIKRLAŞ – inson aqliy faoliyatining turlarini özida mujassamlaştirgan obyektiv fikrlaş tarzini ifodalovçi tuşunça. Tanqidiy fikrlaş – ğoya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyğunlaşuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlaş va qayta qurişdek murakkab jarayondir".

Bilamizki, an'anaviy ta'limda til örgatiş faqat qoida yodlaş va grammatik tahlilga asoslangan bölsa, hozirgi kun ona tili ta'limida zamonaviy yondaşuv tilni fikrlaş, tahlil qiliş va axborotni saralaş quroliga aylantirişni talab etadi. Demak, öquvçi faqat bilim oluvçi emas, balki örganilayotgan jarayonning faol iştirokçisi bölişi ham zarur. Öqituvçining vazifasi esa unga tayyor bilimni yetkaziş emas, balki öquvçida bilimni mustaqil izlab topiş, uni tahlil qiliş va baholaş könikmalarini ham şakllantirişdan iboratdir. Şu bois ham öqituvçi faoliyatida tanqidiy fikrlaş muammosini öquvçi şaxsining intellektual va ijtimoiy rivojlanişida markaziy örin tutişini ta'minlaşi lozim. Bu jarayonni samarali taşkil etiş uçun öqituvçi interfaol metodlardan foydalanişi, muammoli vaziyatlar yaratişi hamda har bir öquvçining fikrini qadrlaşi zarur. Tanqidiy fikrlaşni rivojlantirişga yönaltirilgan ta'lim jarayoni öquvçining tafakkurini faollaştiradi, muloqot madaniyatini oşiradi va qaror qabul qiliş mas'uliyatini mustahkamlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tanqidiy fikrlaş tuşunçasi inson tafakkurining eng yuqori bosqiçini ifodalaydi. Uning mohiyati axborotni idrok etiş, tahlil qiliş, baholaş va öz fikrini asosli tarzda ifoda etiş jarayonidan iborat. Şuning uçun ham Özbekiston Respublikasida sönggi yillarda amalga oşirilayotgan islohotlar, xususan, "Ta'lim töğrisida"gi Qonun, "Yangi Özbekiston taraqqiyot strategiyasi 2030" hamda Prezidentning ta'lim sifatini oşirişga qaratilgan qarorlarida zamonaviy fikrlovçi, ijodkor va tanqidiy tahlilga qodir şaxsni tayyorlaş ustuvor yönaliş sifatida belgilangan. Bu esa pedagoglardan an'anaviy öqitişdan voz keçib, öquvçilarni faol öquv jarayoniga jalb etuvçi metod va texnologiyalarni qöllaşni talab etmoqda.

Bilamizki, tanqidiy fikrlaş – bu insonning muammolarni çuqur anglaş, turli nuqtai nazarlarni tahlil qiliş, dalillarni soliştiriş va qiyoslay oliş hamda asosli qaror qabul qiliş qobiliyati hamdir. Tanqidiy fikrlay oliş qobiliyati nafaqat mantiqiy tafakkurni, balki şaxsiy mas'uliyatni, tahliliy yondaşuvni, kommunikativ kompetensiyani ham şakllantiradi. Şuning uçun ham tanqidiy fikrlaşni rivojlantiriş nafaqat aqliy, balki ma'naviy va ijtimoiy tarbiya bilan ham uzviy boğliq böladi.

Keling bu haqdagi fikrlarga aniqlik kiritiş maqsadida uning pedagogik va psixologik nuqtai nazardan örganilganlik darajasiga ham e'tiborimizni qarataylik:

1. Pedagogik nuqtai nazardan tanqidiy fikrlaş – bu öquvçining bilimga faol munosabatini şakllantiruvçi, mustaqil qaror qabul qilişga yönaltirilgan tafakkur turi ham hisoblanadi. Xorijiy olimlardan J. Dewey tanqidiy fikrlaşni "ongli tafakkur jarayoni, insonning fikrni tekşiriş va dalillaşga asoslangan tahliliy faoliyati" deb izohlaydi, D. Halpern esa uni "aniq maqsadga yönaltirilgan, mantiqiy, tahliliy va dalillarga asoslangan fikrlaş jarayoni" sifatida talqin etadi. Uşbu yondaşuvlar tanqidiy fikrlaşni faqat aqliy faoliyat emas, balki şaxsiy, ijtimoiy va madaniy tajriba bilan boğliq jarayon sifatida ham körsatadi.

2. Psixologik nuqtai nazardan tanqidiy fikrlaş – bu tafakkurning mantiqiylik, tahliliylik, reflektivlik va ijodkorlik elementlarini özida mujassam etadi. Şuning uçun u ta'lim jarayonida şaxsning biliş faoliyatini çuqurlaştiradi va öquvçining kognitiv mustaqilligini şakllantiradi.

Til ta'limida ham tanqidiy fikrlaş masalasi asosiy zarurat sifatida maydonga

çiqdi. Bu esa ona tili dastur va darsliklarini ham şu zarurat tufayli qayta körib çiqildi va yangilandi. Ona tilidan Milliy öquv dasturida ham aynan şu masala öz yeçimini topdi. Ona tili fanida öqitiş masalasining asosiy mazmuni sifatida quyidagi örinlar belgilab berildi:

a) öquvçi şaxsida fikrlaşga, özgalar fikrini anglaşga, öz fikrini oğzaki hamda yozma şaklda nutq şaroitiga mos ravişda töğri va ravon bayon qila olişga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantiriş;

b) öquvçida til qurilişiga oid özlaştiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, söz tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tiniş belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tuşunçalarni) rivojlantiriş.

Til ta'limida tanqidiy fikrlaşning pedagogik zarurat ekanligi quyidagi omillar orqali belgilanadi:

Avvalambor, zamonaviy axborot oqimida öquvçining mustaqil tahlil qila oliş qobiliyatini rivojlantiriş eng asosiy hayotiy zarurat hisoblanadi.

Ikkinçidan, tanqidiy fikrlaş öquvçida mantiqiy va ijodiy tafakkur uyğotadi, bu esa fanlararo bilimlarni integratsiya qiliş imkonini yaratib beradi.

Uçinçidan, tanqidiy fikrlaş öquvçini erkin fikr bildiriş, dalil keltiriş, öz nuqtai nazarini himoya qilişga örgatadi.

Törtinçidan, tanqidiy fikrlovçi şaxs jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatli, ongli qaror qabul qila oladigan fuqaroga aylanadi.

Demak, ona tili ta'limida bu omillarga tayangan holda öquvçi şaxsida tanqidiy fikrlaş könikmasini rivojlantiriş nafaqat öquv jarayonining, balki şaxs tarbiyasining ham ajralmas qismi ekanligini körsatadi.

Hozirgi ona tili ta'lim tizimida öquvçi passiv bilim oluvçi emas, balki faol örganuvçi sifatida maydonga çiqmoqda. Bu esa ona tili fani öqituvçisining darsni taşkil etişdagi yondaşuvini tubdan özgartiradi. An'anaviy, reproduktiv öqitiş örniga, öquvçilarning tafakkur faoliyatini faollaştiruvçi, ularni mantiqan fikrlaşga undovçi metodlar qöllanilişi zarur. Şu örinda Prezidentimiz Ş.M.Mirziyoyevning quyidagi gaplari yodimizga tuşadi: "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va şaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bölişi kerak". Ösib kelayotgan öquvçi yoşlarimizda ham davlatimiz rahbari aytganlaridek, tanqidiy tahlilni yoşligidan örgatib boradigan bölsak, biz öylaymizki, uşbu öquvçi-yoşlar kelajakda yurtimizning yetuk kadrlari bölib yetişadi.

Demak, tanqidiy fikrlaşni şakllantiriş öqituvçining metodik mahoratiga, dars jarayonini qanday taşkil etişiga bevosita boğliqdir. Bu yönalişda quyidagi metodlar öz samarasini bermoqda:

a) *Muammoli* **öqitiş** – öquvçi oldiga hal etilişi kerak bölgan vaziyatni qöyiş orqali uni mustaqil tahlilga undaş. Masalan, "Nima uçun bu hodisa yuz beradi?", "Boşqaça yöl bilan yeçim topiş mumkinmi?" kabi savollar tanqidiy fikrlaşni faollaştiradi.

b) *Interfaol metodlar* – "Aqliy hujum", "Insert", "Fishbone", "Klaster", "Venn diagrammasi", "B.B.B." metodlari öquvçini faol fikrlaşga jalb etadi.

d) *Refleksiya* – öquvçi öz fikr va harakatlarini tahlil qiliş, öz xatolarini aniqlaş orqali örganadi.

e) *Debat va munozara texnologiyalari* – öquvçilarni turli nuqtai nazarlardan fikr yuritişga, dalillaş va tanqidiy tahlil könikmasini oşirişga yordam beradi.

Til öqitiş jarayonida metodik jihatdan dars jarayonining muvaffaqiyati fan öqituvçisi tomonidan yaratilgan psixologik muhit va vaziyatga ham boğliq. Fan öqituvçisi ona tili darslarida öquvçini öz fikrini erkin ifoda eta oladigan, xato qilişdan qörqmaydigan, rağbatga asoslangan dars muhitini yaratişi kerak. Ayni şu vaziyat tanqidiy fikrlaşning tabiiy rivojlanişiga xizmat qilişiga yordam beradi. Buning uçun esa, ya'ni öquvçilarda tanqidiy fikrlaşni şakllantiriş uçun bir qator talablarning mavjudligi ham katta rol öynaydi. Ular quyidagilar bölişi mumkin:

1) faol iştirok muhitini yaratiş – öquvçi darsda passiv tinglovçi emas, balki faol iştirokçi bölişi kerak.

2) savolga asoslangan öqitiş – "nima?", "nega?", "qanday?" kabi oçiq savollar orqali öquvçini tahlilga jalb etiş lozim;

3) Metakognitiv yondaşuv – öquvçining öz fikr jarayonini anglaş, nazorat qiliş va baholaş qobiliyatini rivojlantiriş zarur;

4) axborot manbalarini tanqidiy tahlil qiliş – öquvçiga internet, matbuot yoki darslikdagi ma'lumotlarni soliştirib, ularning işonçliligini baholaşni örgatiş kerak. Didaktik şartlar amalga oşirilgan taqdirda, öquvçilar örganilgan materialni çuqurroq anglaydi, öz fikrini dalillay oladi va yangiça yondaşuvlar taklif etadi.

Tanqidiy fikrlaşni şakllantirişda öqituvçi markaziy figura hisoblanadi, ya'ni u bilim manbai emas, balki örganiş jarayonining taşkilotçisi va yölboşçisi sifatida harakat qiladi. Bunda öqituvçi quyidagi vazifalarni bajarişi zarur:

a) öquvçilarda savol beriş madaniyatini rivojlantiriş;

b) ularni tahlil, soliştiriş va baholaş faoliyatiga jalb etiş;

d) turli fikrlarni hurmat qiliş va muhokama qiliş könikmalarini şakllantiriş;

e) baholaşni jarayon sifatida taşkil etiş, ya'ni xatoni jazolaş emas, balki örganiş vositasi sifatida qabul qiliş. Öqituvçining bunday faol yondaşuvi öquvçilarda refleksiv, mustaqil va mas'uliyatli tafakkurni şakllantirişga imkon beradi.

Tahlil va natijalar

Ona tili darslarida muammoli ta'lim metodidan foydalaniş öquvçilarning mantiqiy va ijodiy fikrlaşini rivojlantirib, ularni mustaqil xulosa çiqarişga örgatadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, muammoli ta'lim - öquvçi oldiga hal etilişi kerak bölgan vaziyatni qöyiş orqali uni mustaqil tahlilga undaş sanaladi. E'tiborimizni muammoli ta'limning mohiyatiga qarataylik: Unda muammoli vaziyat, faol izlaniş, nutqiy könikma kabilarga e'tiborni qaratamiz:

1) muammoli vaziyat - bu öqituvçi darsda yeçimi topilişi kerak bölgan ziddiyatli savol yoki topşiriq qöyişdir;

2) faol izlaniş - bu öquvçi tayyor qoidani yodlaş örniga muammoning sababini özi qidirib topişdir;

3) nutqiy könikma - bu öquvçilar öz fikrini mantiqiy asoslab hamda oğzaki va yozma nutqda ravon bayon etişni örganişdir.

Muammoli ta'limni tatbiq etiş quyidagi bosqiçlar asosida amalga oşiriladi:

1-bosqiç, ya'ni muammoni qöyiş: Mavzuga doir qiyin yoki öquvçini

öylantiradigan savol örtaga taşlanadi.

2-bosqiç, ya'ni tahlil qiliş: Öquvçilar mavjud bilimlari yordamida vaziyatni muhokama qiladi.

3-bosqiç, ya'ni yeçim topiş: Gipotezalar ilgari surilib, qoida yoki xulosa öquvçilarning özi tomonidan çiqariladi.

Ona tilida (ayniqsa, özbek tilida) ikki xil yoziladigan yoki yozilişi bahsga sabab böladigan sözlar (variantdorlik, asosi bir bölib, şakli özgargan sözlar yoki orfografik qoidalardagi çalkaşliklar) öquvçilarda ham, kattalarda ham qiziqiş uyğotadi. Quyida ona tili darslarda bahsli vaziyat (disput/debating) yaratiş va imlo qoidalarini çuqurroq örganişga möljallangan interaktiv maşqlardan namunalar keltiramiz:

1-maşq. "Sud zalida imlo" (Rolli **öyin**).

Maqsad: Sözlarning yoziliş variantlarini ilmiy (luğat va qoidalar) nuqtai nazardan asoslab berişni örgatiş.

Vaziyat: Sinf yoki guruh ikkita "advokatlar" jamoasiga bölinadi. Bitta öquvçi "Hakam" böladi. Har bir jamoaga bitta sözning ikki xil yozilişi beriladi. Ular özlariga berilgan variantning töğriligini luğat qoidalariga tayanib isbotlaşlari kerak.

Bahsli sözlar juftligi:

1-juftlik: **Surat** (rasm) va **Suvrat** (taşqi köriniş, şakl – eski imloda). *Bahs:* Hozirgi adabiy tilda qaysi biri töğri?

2-juftlik: **Matbaa** va **Matbuot**. *Bahs:* Bu sözlar bir-birining varianti (sinonimi) mi yoki butunlay boşqa-boşqa ma'noli sözlarmi?

3-juftlik: **Tafakkur** va **Tafakkur**. *Bahs:* Asli arabça bölgan bu sözda "k" harfi ikkita yoziladimi yoki bitta?

2-maşq. "Muxbir va Tahrirçi" (Uslubiy bahs)

Maqsad: Talaffuzda ikki xil aytilib, yozuvda çalkaşlik keltiradigan sözlar ustida işlaş.

Vaziyat: "Muxbir" maqola yozgan, lekin "Tahrirçi" uning xatolarini töğrilagan. Muxbir esa özinikini töğri deb turib olibdi. Quyidagi sözlar ustida ikki tomon öz argumentlarini keltirişi kerak:

Poyafzal yoki **Poyabzal**? (Forsça "poy" - oyoq, "afzal/abzal" - kiyim, anjom. Qaysi biri töğri?)

Sanoat yoki **San'at**? (Tarixan bitta özakdan kelib çiqqan bu sözlarning bugungi kundagi farqi nimada?)

Vazifa yoki **Vaziyfa**? (Nima uçun ba'zi odamlar örtaga "y" harfini qöşib yozişni yoqlaşadi?)

Demak, öquvçini dars jarayonida faolligini oşiriş, ularni tanqidiy fikrlahga örgatiş quyidagilarga e'tiborni qaratiş kerak:

a) interfaol metodlar – "Aqliy hujum", "Insert", "Fishbone", "Klaster", "Venn diagrammasi", "B.B.B." metodlari öquvçini faol fikrlaşga jalb etadi;

b) refleksiya – öquvçi öz fikr va harakatlarini tahlil qiliş, öz xatolarini aniqlaş orqali örganadi;

d) debat va munozara texnologiyalari - öquvçilarni turli nuqtai nazarlardan fikr yuritişga, dalillaş va tanqidiy tahlil könikmasini oşirişga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa şuki, tanqidiy fikrlaşni rivojlantirişga yönaltirilgan ta'lim: birinçidan, öquvçilarning mustaqil işlaş faoliyatini 40-50 foizga oşiradi; ikkinçidan, ularning muloqot madaniyati va jamoaviy hamkorlik könikmalarini kuçaytiradi; uçinçidan, öz fikrini asoslaş, dalillaş va baholaş könikmalarini rivojlantiradi; törtinçidan, ta'lim natijalarining barqarorligini ta'minlaydi. Natijada, bunday yondaşuv orqali öquvçi nafaqat bilim egasi, balki ijtimoiy faol, mas'uliyatli, fikr yuritiş madaniyatiga ega şaxs sifatida kamol topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Özbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantiriş böyiça milliy dasturni tasdiqlaş töğrisida"gi farmoni, 2022.
2. Mirziyoyev Ş.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va şaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bölişi kerak. Toşkent: Özbekiston, 2017.
3. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / Toşkent: Özbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy naşriyoti, 2015.
4. Umumiy örta ta'limning Milliy öquv dasturi. Ona tili (1–11-sinflar). Toşkent: Respublika ta'lim markazi, 2020.
5. Yusupova T. Til ta'limida öquvçilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirişning mazmun va mohiyati. Filologiya va pedagogika, 2026
6. Yusupova T. Bölajak ona tili öqituvçilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirişning nazariy va metodik asoslari. Maktabgaça va maktab ta'limi jurnali, 2026.
7. Naraliyeva Ş., Yusupova T. Developing Students' Creative Thinking Through Working on the Topic. Science and Innovation, 2024.